

## KIMYO 7-SINF 21-25&amp;

	SAVOL	JAVOB
1	Qaysi jarayon inson tomonidan eng birinchi bo'lib o'rganilgan?	Yonish
2	Yonish deb nimaga aytiladi?	Kislorod ishtirokida ko'p miqdorda issiqlik va yorug'lik nuri ajralib chiqishi bilan kechadigan reaksiyalar
3	Moddalarni havoda yondirish uchun zarur bo'lgan harorat nima deb ataladi?	Alanganish harorati
4	Alanga nima?	Qizigan gaz va bug'lar aralashmasi
5	Yonilg'i nima?	Yonuvchanligi natijasida issiqlik bera oladigan material
6	Yonilg'ining qanday ko'rinishlari mavjud?	Qattiq, suyuq va gazsimon
7	Yong'in nima?	Nazoratdan chiqib ketgan yonish hodisasi
8	Gazsimon yonilg'i turini aniqlang	Tabiiy gaz, generator gazi, H <sub>2</sub> , CO
9	Qattiq yonilg'i turini aniqlang	Ko'mir, torf, slanes, yog'och
10	Suyuq yonilg'i turini aniqlang	Benzin, mazut, spirt
11	Qaysi yonilg'i turidan mineral qoldiq - kul qoladi?	Qattiq yonilg'ilardan
12	O'zbekistonda ko'mir asosan qaysi konlardan qazib olinadi?	Angren, Sharg'un, Boysun
13	O'zbekistonda ko'mir zaxiralari qancha?	2 milliard tonnadan ortiq
14	Neft qaysi mintaqalarda qazib olinadi?	Ustyurt, Buxoro, janubiy-g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona
15	Respublikamizda eng yirik tabiiy gaz konlari qaysilar?	Sho'rtan va Muborak
16	Kim «yonuvchi havo»ni kashf etdi?	1766-yilda ingliz olimi G.Kavendish
17	Kim 1783-yilda Parijda vodorod to'ldirilgan sharni havoga uchirdi?	Jak Sharl
18	Kim Kavendish kashf etgan «yonuvchi havo» suv tarkibiga kirishini aniqladi va unga «gidrogenium» ya'ni suv yaratuvchi degan nom berdi?	1787-yilda A.Lavuazye
19	Vodorod nima holda juda ko'p tarqalgan?	Birikma
20	Vodorod Yer po'stlog'i, suv va havoning birgalikdagi massasining qancha qismini tashkil etadi?	0,88%
21	Vodorodning protiy izotopi kim tomonidan kashf etilgan?	1766-y. G.Kavendish
22	Vodorodning deyteriy izotopi kim tomonidan kashf etilgan?	1932-y. G.Yuri
23	Vodorodning tretiy izotopi kim tomonidan kashf etilgan?	1934-y. M.Olifamta
24	Vodorod atomlari yulduzlar qarida nimaga aylanadi?	Geliy atomlariga
25	Sitrus mevalarda (limon, apelsin, mandarin) qaysi kislota uchraydi?	Limon kislota
26	Ho'l mevalarda (olma, behi, anor) qaysi kislota uchraydi?	Olma kislota
27	Otquloq yoki shovul barglarida qaysi kislota uchraydi?	Shovul kislotasi
28	Chumolilaming qorin qopchiqlarida (asalari zahari va qichitqi o't ignachalarida ham) qaysi kislota uchraydi?	Chumoli kislota
29	Moddalarning maxsus xossalari bilan bog'liq ravishda rangini o'zgartiruvchi sinov moddalari nima deb ataladi?	Indikatorlar
30	Kislota eritmasida binafsha rangli lakmus qanday	qizil

	rangga o'zgaradi?	
31	Kislota eritmasida rangsiz fenolftalein qanday rangga o'zgaradi?	Rangi o'zgarmaydi
32	Kislota eritmasida to'q sariq rangli metil zarg'aldog'i qanday rangga o'zgaradi?	Pushti rangga
33	Kislota eritmasida universal indikator qanday rangga o'zgaradi?	Qizil
34	Kislota eritmasining ta'mi qanday tamga ega bo'ladi?	Nordon
35	Vodorod laboratoriyada qaysi usul bilan olinadi?	Rux bilan xlorid kislotani o'zaro ta'sirlashuvi natijasida: $Zn + 2HCl = ZnCl_2 + H_2$
36	Vodorod laboratoriyada qaysi apparat yordamida olinadi?	Kipp apparatida
37	Vodorod sanoatda qaysi usullarda olinadi?	1. Suvni elektroliz qilish: $2H_2O = 2H_2 + O_2$ 2. Metanni qayta ishlash: $CH_4 + H_2O = CO + 3H_2 + 206 \text{ kJ}$ (bu reaksiya 425-450°C da Ni katalizatori ishtirokida olib boriladi). 3. $CO + H_2O = CO_2 + H_2 - 40 \text{ kJ}$ (bu reaksiya 425-450°C da $Fe_2O_3$ katalizatori ishtirokida olib boriladi).
38	Eng yaxshi issiqlik o'tkazuvchi gaz qaysi?	Vodorod
39	Eng yengil gaz sifatida eng katta diffuziya tezligiga ega gaz qaysi?	Vodorod
40	Vodorod normal sharoitda 1 l suvda qancha miqdorda eriydi?	21,5 ml
41	Vodorod qaysi metallarda yaxshi eriydi?	Nikel, palladiy, platina
42	Vodorod xona haroratida qaysi metallmas bilan ta'sirlashadi?	Ftor
43	Vodorod xlor bilan 1) yorug'likda; va 2) qorong'uda qanday birikadi?	1) Yorug'likda tez; 2) qorong'uda va qizdirilmaganda sekin
44	2:1 hajmiy nisbatdagi vodorod va kislorod aralashmasi nima deb ataladi?	«qaldiriq gaz»
45	Ishqoriy va ishqoriy-yer metallar yuqori haroratda vodorod bilan qanday birikmalar hosil qiladi?	Tuzsimon birikmalar - gidridlarni hosil qiladi
46	Atom holatidagi vodorod qaysi moddalar bilan xona haroratida reaksiyaga kirisha oladi?	Oltinugurt, mishyak, fosfor, kislorod